ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IJTIMOIY TARMOQLARDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Samandarova Gulhayo Erkin qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va internet kommunikatsiyasining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida, jumladan, til va muloqot tizimida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki yangi kommunikativ makon, ijtimoiy munosabatlar va til taraqqiyotini shakllantiruvchi muhim omillardan biriga aylandi[1]. Telegram, Instagram, Facebook, TikTok, YouTube va X (Twitter) kabi platformalar millionlab foydalanuvchilarning kundalik muloqot muhiti sifatida o'zbek tilining qo'llanish sohasini kengaytirib, raqamli muloqotga xos yangi nutq shakllari va kommunikativ odatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi til tizimining leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik sathlarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda[2]. Xususan, internet diskursida kommunikativ tejamkorlik, multimodallik, xorijiy til birliklarining o'zlashuvi hamda kod almashinuvi zamonaviy o'zbek tili taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda[3].

Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi tezkor va norasmiy muloqot adabiy til me'yorlaridan chetlanish, imlo va punktuatsiya qoidalariga to'liq rioya qilmaslik hamda xorijiy til birliklarining me'yoridan ortiq qo'llanishi kabi holatlarning kuzatilishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bois mazkur jarayonlarni lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan ilmiy tahlil qilish zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[4].

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, raqamli kommunikatsiya muhitida yuzaga kelayotgan asosiy lingvistik o'zgarishlarni aniqlash hamda ularning til taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Raqamli kommunikatsiya va internet lingvistikasi masalalari jahon hamda o'zbek tilshunosligida faol tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. D. Kristal internetni til taraqqiyotining yangi kommunikativ muhiti sifatida baholab, unda yuzaga kelayotgan leksik, grafik va pragmatik o'zgarishlarning nazariy asoslarini yoritadi[5]. Ijtimoiy tarmoqlar tilining pragmatik va lingvostilistik xususiyatlari A.Matusevich tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa[6], hashtaglarning kommunikativ va lingvistik tabiati I.Ilyina ishlarida tahlil qilingan[7]. O'zbek tilshunosligida ham internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarda raqamli muloqotga xos til hodisalari yoritilgan[8]. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tili taraqqiyotiga ta'sirini tilning leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik sathlari kesimida kompleks tahlil qilish masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotda tavsifiy, lingvistik kuzatish, diskurs tahlili, pragmalingvistik va qiyosiy-tavsifiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida *Telegram, Instagram, Facebook, TikTok* va *YouTube* platforma-

[1] Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

[2] Iskandarova Sh.M., Israilova K.T. Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari. // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 31. – № 3. – B. 79–83.

[3] Mahmanazarova Sh.H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.

[4] Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011.

[5] Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 272 p.; Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. – London: Routledge, 2011. – 192 p.

[6] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017. – 22 с.

[7] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41–44.

[8] Tursunova M., Muhammadiyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyati // Ustozlar uchun: pedagoglar jurnali. – 2026. – T. 99. – № 1. –B. 185-188.; Mahmanazarova Sh. H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.

larining o'zbek segmentidagi matnlar, izohlar hamda ommaviy kommunikatsiya namunalari tanlandi. Til birliklari ularning leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik xususiyatlari asosida tahlil qilinib, natijalar funksional hamda interpretativ yondashuv asosida umumlashtirildi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha jabhalarida chuqur transformatsion jarayonlar yuz bermoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi kommunikatsiyaning mazmuni, shakli hamda vositalarini tubdan o'zgartirib, yangi kommunikativ makonning shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda *Telegram, Instagram, Facebook, TikTok, YouTube* va *X (Twitter)* kabi platformalar nafaqat axborot almashish vositasi, balki til taraqqiyoti, nutq madaniyati va kommunikativ xulq-atvorning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim sotsiolingvistik omil sifatida ham e'tirof etilmoqda[1].

An'anaviy kommunikatsiyada til asosan og'zaki va yozma nutq orqali namoyon bo'lsa, raqamli kommunikatsiya sharoitida matn, tasvir, audio, video, emodzi, stiker, GIF animatsiyalar va boshqa vizual elementlarning o'zaro integratsiyasi natijasida multimodal muloqot shakllandi[2]. Bunday kommunikativ muhitda tilning funksional imkoniyatlari kengayib, axborotni uzatish va qabul qilish jarayonida verbal hamda noverbal vositalar uyg'unlashmoqda. Natijada internet diskursiga xos yangi kommunikativ me'yorlar va nutq strategiyalari yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tilining funksional taraqqiyotida ham muhim o'rin tutmoqda. So'nggi yillarda mazkur platformalarda yaratilayotgan o'zbek tilidagi kontent hajmi sezilarli darajada ortib, davlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari va individual kontent yaratuvchilar ijtimoiy tarmoqlardan asosiy kommunikativ maydon sifatida foydalanmoqda. Natijada o'zbek tilining qo'llanish doirasi kengayib, uning yangi uslubiy ko'rinishlari shakllanmoqda[3].

Har bir ijtimoiy tarmoq o'zining texnologik imkoniyatlari va kommunikativ modeli bilan tilning rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Telegram platformasida matnli muloqot yetakchi o'rin egallaganligi sababli unda yozma nutq, qisqartmalar, kod almashinuvi va rasmiy hamda norasmiy uslublarning uyg'unlashuvi faol kuzatiladi. Instagram va TikTok platformalarida esa tasvir hamda qisqa videolar ustuvor bo'lgani uchun verbal axborot vizual vositalar bilan birgalikda ifodalanadi. YouTube platformasida og'zaki va yozma nutq elementlari uyg'unlashib, sharhlar, tavsiflar hamda jonli muloqot orqali yangi diskursiv modellarni yuzaga keltirmoqda. Facebook platformasida esa jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy munozaralar hamda ommaviy kommunikatsiya jarayonlari til birliklarining funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda[4].

Raqamli platformalarning lingvistik xususiyatlaridan biri kommunikativ tejamkorlik tamoyilining ustuvorligidir[5]. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotni qisqa vaqt ichida yetkazish zarurati natijasida sodda sintaktik konstruksiyalar, qisqartmalar, ellipsis, emodzi va boshqa grafik vositalardan foydalanish tobora faollashmoqda. Shu bilan birga, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar va internetga xos leksik birliklar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida moslashtirilib, yangi til birliklari hosil qilinmoqda. Jumladan, *post qilmoq, layk bosmoq, storiz joylamoq, obuna bo'lmoq, pryamoy (jonli) efirga chiqmoq, podpiska (obuna) bo'lmoq, kontent yaratmoq, rils yuklamoq* kabi birliklar bugungi internet diskursining faol elementlariga aylangan[6]. Mazkur jarayonlar o'zbek tilining dinamik rivojlanayotganligini, uning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashish xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar til tizimining barcha sathlariga ta'sir ko'rsatmoqda[7]. Leksik sathda yangi o'zlashmalar va neologizmlar paydo bo'layotgan bo'lsa, morfologik sathda gibrid konstruksiyalarining faollashuvi kuzatiladi. Sintaktik sathda ixcham gap qurilishlari va dialogik modellar keng qo'llanmoqda. Grafik sathda *emodzilar, hashtaglar,* @ belgisi yordamida foydalanuvchini belgilash, *giperhavolalar, stikerlar* hamda boshqa vizual vositalarning qo'llanilishi yozma

[1] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[2] Кольцова Е.А., Карташкова Ф.И. Мультимодальный характер цифровой коммуникации: функционирование эмодзи в межличностном общении // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2022. – Т. 13. – № 3. – С. 769–783.

[3] Mahmanazarova Sh.H. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga ta'siri // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2025.

[4] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[5] Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув: монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 110 б.

[6] Nuriddinova M.Sh. Ijtimoiy tarmoq leksikasi tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o'rni // – 2026. Qo'qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 8(2), 511-514.

[7] Iskandarova Sh.M., Israilova K.T. Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari. // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 31. – № 3. – B. 79-83.

kommunikatsiyaning muhim xususiyatlaridan biriga aylanmoqda[1]. Pragmatik jihatdan esa auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, e'tiborni jalb qilish, emotsional munosabatni ifodalash hamda internet hamjamiyatiga xos kommunikativ identifikatsiyani shakllantirish yangi nutq strategiyalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda[2].

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zbek tilining rivojlanishida nafaqat yangi til birliklarining vujudga kelishiga, balki tilning funksional imkoniyatlari, kommunikativ vazifalari va uslubiy rang-barangligining kengayishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli raqamli kommunikatsiya muhitida yuz berayotgan lingvistik jarayonlarni tizimli ravishda o'rganish o'zbek tilshunosligining istiqbolli ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zbek tilining leksik tizimiga eng faol ta'sir ko'rsatayotgan kommunikativ muhitlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, internet xizmatlari va platformalarning ommalashuvi natijasida o'zbek tilining lug'at tarkibi yangi tushunchalar, terminlar va kommunikativ birliklar bilan muntazam boyib bormoqda. Mazkur jarayon, avvalo, raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq yangi voqeliklarning paydo bo'lishi hamda ularni nomlash zarurati bilan izohlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zbek tiliga kirib kelayotgan leksik birliklarning salmoqli qismini ingliz tili manbali o'zlashmalar tashkil etadi. Bunga *post*, *layk*, *share*, *storiz*, *rils*, *blog*, *podkast*, *kontent*, *profil*, *akkaunt*, *admin*, *moderator*, *hashtag*, *trend*, *viral*, *live* va *shorts* kabi birliklarni misol qilish mumkin. Mazkur birliklar ijtimoiy tarmoqlarda axborot joylashtirish (*post*), foydalanuvchining munosabatini bildirish (*layk*), kontentni ulashish (*share*), vaqtinchalik yoki qisqa videolar (*storiz*, *rils*, *shorts*), raqamli media mahsulotlari (*blog*, *podkast*, *kontent*), foydalanuvchi identifikatsiyasi (*profil*, *akkaunt*), sahifa yoki guruhni boshqarish (*admin*, *moderator*), axborotni guruhlash (*hashtag*), ommalashuv darajasi (*trend*, *viral*) hamda real vaqt rejimidagi muloqot (*live*) kabi tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu birliklarning ayrimlari o'zbek tilida asl shaklini deyarli saqlab qolayotgan bo'lsa, ayrimlari fonetik va morfologik moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqda.

Leksik o'zlashmalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning faol so'z yasash jarayoniga kirishayotganidir. Xususan, *post, layk, sheyr, stori, rils, podpiska, kontent, komment* kabi ot turkumiga mansub birliklar o'zbek tilidagi yordamchi fe'llar bilan birikib, yangi fe'lli konstruksiyalarini hosil qilmoqda[3]. Natijada *post qilmoq, layk bosmoq, sheyr (share) qilmoq, stori joylamoq, rils yuklamoq, podpiska bosmoq (obuna bo'lmoq), kontent yaratmoq, komment (izoh) qoldirmoq* kabi birikmalar internet diskursining faol birliklariga aylanmoqda. Bunday konstruksiyalar dastlab norasmiy internet muloqotida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular ommaviy axborot vositalari, reklama matnlari va blogerlar nutqida ham keng uchramoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'zbek tilida yangi semantik munosabatlar ham shakllanmoqda. Masalan, *kanal, profil, obuna, kuzatuvchi, izoh, jonli efir* kabi birliklar an'anaviy ma'nolaridan tashqari internet kommunikatsiyasiga xos yangi mazmun kasb etdi. Xususan, *kanal* so'zi ilgari asosan texnik yoki geografik obyektni anglatsa, bugungi kunda Telegram va YouTube platformalaridagi axborot resursi ma'nosida faol qo'llanilmoqda. Xuddi shuningdek, *obuna* leksemasi bosma nashrlarga yozilish ma'nosidan tashqari ijtimoiy tarmoq sahifasi yoki kanalini muntazam kuzatib borishni ham anglatadigan ko'p ma'noli birlikka aylandi[4].

Raqamli kommunikatsiyada yangi kommunikativ formulalar ham shakllanmoqda. Ayniqsa, blogerlar va kontent yaratuvchilar nutqida *kanalga obuna bo'ling, layk bosishni unutmang, izohlarda fikringizni yozing, videoni do'stlaringiz bilan ulashing, jonli efirda ko'rishguncha, reelsni oxirigacha tomosha qiling* kabi murojaat konstruksiyalari muntazam takrorlanmoqda. Ushbu birliklar dastlab alohida mualliflar nutqida yuzaga kelgan bo'lsa, bugungi kunda internet diskursining barqaror kommunikativ qoliplariga aylanib bormoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yangi baholovchi va ekspressiv birliklarning faollashuviga ham xizmat qilmoqda. *Trendga chiqmoq, viral bo'lmoq, top kontent, xit video, dahshat (zo'r) kontent, super reels* kabi birikmalar internet foydalanuvchilari nutqida keng qo'llanilib, axborotning ommabopligi, sifati yoki auditoriyaga ta'sir darajasini ifodalovchi pragmatik vosita vazifasini bajarmoqda. Mazkur birliklarning ayrimlari hali adabiy til me'yorida mustahkam o'rin

[1] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41-44.

[2] Матусевич А.А. Общение в социальных сетях: прагматический, коммуникативный, лингвостилистический аспекты характеристики: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2017.

[3] Nuriddinova M.Sh. Ijtimoiy tarmoq leksikasi tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o'rni // – 2026. Qo'qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali, 8(2), 511-514.

[4] Tursunova M., Muhammadiyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyati // Ustozlar uchun: pedagoglar jurnali. – 2026. – T. 99. – № 1. - B. 185-188.

egallamagan bo'lsa-da, ularning qo'llanish chastotasi ortib borayotgani o'zbek tilining zamonaviy leksik taraqqiyotida ijtimoiy tarmoqlarning sezilarli o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tilining leksik tizimida yangi o'zlashmalar, semantik kengayishlar va kommunikativ birliklarning shakllanishini jadallashtirmoqda. Ushbu jarayon tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda global axborot makonining ta'siri o'zaro uyg'unlashgan holda kechayotganini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar faqat leksik sath bilan cheklanmay, tilning grammatik tizimida ham muayyan rivojlanish tendensiyalarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, xorijiy til birliklarining o'zbek tili grammatik me'yorlariga moslashuvi, fe'lli konstruksiyalarining faollashuvi hamda sintaktik ixchamlikning kuchayishi raqamli kommunikatsiyaning muhim lingvistik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hodisalar o'zbek tilining yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashish qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Chet tillardan kirib kelayotgan birliklar tayyor grammatik model sifatida emas, balki o'zbek tilining mavjud grammatik vositalari bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilib, milliy grammatik tizim doirasida yangi funksional imkoniyat kasb etmoqda. Demak, ijtimoiy tarmoqlar negizida yuzaga kelayotgan til o'zgarishlari dastlab leksik sathda namoyon bo'lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik tizimga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Morfologik moslashuv jarayoni faqat fe'lli konstruksiyalar bilan cheklanmaydi. Ayrim o'zlashmalar o'zbek tilining so'z o'zgartirish tizimiga ham faol kirib bormoqda. Masalan, *blogerlar, adminlar, kontentchilar, obunachilar* kabi ko'plik shakllari, *blogerning fikri, profilim, kanalingiz, postingiz, storiysi* kabi egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanayotgan birliklar xorijiy leksemalarning o'zbek tili morfologik tizimiga integratsiyalashayotganini ko'rsatadi. Bunday hodisalar o'zbek tilining ochiq va dinamik tizim sifatida yangi til birliklarini o'zlashtirish imkoniyatlari keng ekanligini tasdiqlaydi.

Raqamli kommunikatsiya sintaktik qurilishlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning tezkorligi va kommunikativ tejamkorlik tamoyili natijasida sodda, ixcham va ekspressiv gap konstruksiyalari ustunlik qilmoqda. Ayniqsa, bir yoki ikki komponentdan iborat gaplar, to'liqsiz gaplar hamda ellipsis hodisasi[1] internet diskursining faol sintaktik vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, *Gap yo'q!, Dahshat chiqibdi!, Respekt!, Top kontent!, Ajoyib loyiha!, Mashallah!, Obuna bo'ling!, Izoh kutamiz., Davomi bor., Ko'rishganda ko'rishguncha.* kabi konstruksiyalar axborotni qisqa shaklda yetkazish bilan birga, auditoriyaning e'tiborini jalb qilish va muloqotga undash vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda imperativ mazmunli sintaktik qurilmalarning qo'llanish chastotasi ortib bormoqda. Xususan, *kanalga obuna bo'ling, layk bosing, videoni ulashing, fikringizni izohlarda qoldiring, do'stlaringizni belgilang, videoni oxirigacha tomosha qiling, sizning fikringiz qanday? do'stlaringizga ham ulashing* kabi murojaat shakllari internet diskursining qoliplashgan sintaktik birliklariga aylangan. Mazkur konstruksiyalar reklama, marketing, ta'lim va ommaviy axborot vositalari diskursida ham faol qo'llanilib, auditoriya bilan interaktiv muloqotni ta'minlashning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar dialogik muloqotning sintaktik xususiyatlarini ham o'zgartirmoqda. Savol-javob shaklidagi qisqa replikalar, javobni kutishga yo'naltirilgan ritorik savollar, izohlar orqali davom ettiriladigan dialogik birliklar hamda emodzi va grafik belgilar bilan uyg'unlashgan gap konstruksiyalari internet diskursining o'ziga xos sintaktik modelini shakllantirmoqda. Bunda yozma nutq og'zaki muloqotning ayrim belgilarini o'zlashtirib, tabiiy suhbatga yaqin kommunikativ muhitni yuzaga keltirmoqda.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'zbek tilining morfologik va sintaktik tizimida kuzatilayotgan o'zgarishlar tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanmoqda. Ushbu jarayonlar o'zbek tilining moslashuvchanligi va funksional imkoniyatlarining kengayib borayotganini ko'rsatadi hamda internet diskursini grammatik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli kommunikatsiyaning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda til birliklari faqat leksik yoki grammatik vositalar orqali emas, balki grafik va vizual elementlar yordamida ham ifodalanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda matn, *emodzi, stiker, GIF, hashtag, giperhavola* va boshqa raqamli belgilar o'zaro uyg'unlashib, kommunikativ mazmunni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Natijada yozma nutqning an'anaviy ko'rinishidan farq qiluvchi, multimodal xususiyatga ega yangi kommunikativ model yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda emodzilar ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ular nafaqat hissiy holatni ifodalash, balki matnning pragmatik mazmunini kuchaytirish, muallifning munosabatini bildirish hamda kommunikativ ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. Masalan, □, □, □□, □, □ kabi emodzilar ko'pincha matnda bevosita ifodalanmagan emotsional ma'nolarni to'ldiradi yoki kuchaytiradi. Ayrim hollarda esa emodzi mustaqil kommu-

[1] Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув: монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 110 б.

nikativ birlik sifatida ham qo'llanib, butun bir fikr yoki bahoni ifodalashi mumkin[1].

Ijtimoiy tarmoqlarda grafik vositalarning yana bir faol turi hashtag (#) hisoblanadi. Dastlab axborotni guruhlash va qidiruvni yengillashtirish vositasi sifatida shakllangan hashtaglar bugungi kunda matnning pragmatik ta'sirini kuchaytirish, muayyan ijtimoiy yoki madaniy hodisaga e'tibor qaratish hamda foydalanuvchilarni umumiy kommunikativ maydonga birlashtirish vazifasini ham bajarmoqda[2]. O'zbek segmentida ta'lim, kitobxonlik, turizm, milliy taomlar hamda ijtimoiy-siyosiy mavzularga oid hashtaglarning faol qo'llanilishi ularning axborotni tasniflash va auditoriyani shakllantirishdagi muhim funksiyasini ko'rsatadi.

Grafik vositalar orasida @ belgisi orqali murojaat qilish, foydalanuvchini belgilash yoki muayyan sahifaga havola berish amaliyoti ham keng tarqalgan. Mazkur belgi raqamli muloqotda shaxslararo aloqani kuchaytirish, auditoriyani kengaytirish va kommunikatsiyaning interaktivligini ta'minlashda muhim funksiyani bajaradi. Shu bilan birga, giperhavolalar, QR-kodlar va platformalararo havolalarning matn tarkibiga kirib kelishi yozma nutqning an'anaviy chegaralarini kengaytirib, uni ko'p qatlamli axborot tizimiga aylantirmoqda.

Raqamli muloqotda orfografik va punktuatsion me'yorlarning qo'llanishida ham o'ziga xos tendensiyalar kuzatiladi. Jumladan, ayrim foydalanuvchilar tomonidan bosh harflardan foydalanmaslik, tinish belgilarini minimal darajada qo'llash yoki aksincha, emotsional ta'sirni kuchaytirish maqsadida undov va so'roq belgilarini takrorlash (*Zo'r!!!, Aniqmi???*) kabi holatlar keng uchraydi. Shuningdek, lotin va kirill yozuvlarining aralash qo'llanishi, apostrof belgilarining turlicha yozilishi (o' - o', g' - g') hamda ayrim fonetik qisqartmalar (*bo'ladi – boladi, zo'r – zor*) norasmiy internet muloqotining xarakterli belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday hodisalar, asosan, tezkor yozish, texnik imkoniyatlar yoki foydalanuvchilarning individual yozuv odatlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda grafik va pragmatik vositalarning faollashuvi o'zbek tilining zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Grafik belgilar, vizual elementlar va pragmatik strategiyalar yozma nutqning ifoda imkoniyatlarini boyitib, yangi kommunikativ me'yorlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur hodisalar adabiy til me'yorlari, yozuv madaniyati va raqamli kommunikatsiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tili taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan muhim sotsiolingvistik omil ekanini ko'rsatdi. Til o'zgarishlari dastlab leksik sathda (yangi o'zlashmalar, neologizmlar) namoyon bo'lib, so'ngra morfologik, sintaktik va grafik-pragmatik sathlarga ham izchil tarqalmoqda. Bu o'zbek tilining ochiq, moslashuvchan tizim sifatida zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga tez javob bera olishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bu jarayon ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan tilning funksional imkoniyatlarini boyitsa, ikkinchi tomondan adabiy me'yordan chetlanish, imlo-punktuatsiya buzilishi va xorijiy birliklarning ortiqcha qo'llanishi kabi holatlarni ham keltirib chiqaradi. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy tarmoqlar tilini o'rganish uchun korpusga asoslangan monitoring tizimini yo'lga qo'yish;
2. Internet leksikasini ilmiy tasniflash va lug'atlashtirish;
3. Yosh foydalanuvchilarda til madaniyatini shakllantiruvchi ta'lim-metodik ishlarni kuchaytirish;
4. Mavzuni korpus lingvistikasi, media lingvistikasi, pragmalingvistika va sotsiolingvistika yo'nalishlari kesimida kompleks tadqiq etishni davom ettirish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tilining nafaqat yangi birliklar manbai, balki uning zamonaviylashuv jarayonining ko'zgusi vazifasini ham bajarmoqda va bu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligi uchun istiqbolli hisoblanadi.

Rezyume. Maqola ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tiliga leksik, morfologik, sintaktik, grafik va pragmatik sathlarda ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qiladi. Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar (*post, layk*) o'zbek fe'l va qo'shimchalar tizimi bilan moslashmoqda (*post qilmoq, blogerlar*), kommunikativ tejamkorlik esa ixcham gap va imperativ murojaatlarni (*Obuna bo'ling!*) faollashtirmoqda. Muallif bu jarayonlarni o'zbek tilining dinamik rivojlanishi sifatida baholab, internet leksikasini korpus asosida o'rganishni tavsiya etadi.

Resume. The article examines how social networks influence the Uzbek language at the lexical, morphological, syntactic, graphic, and pragmatic levels. English borrowings (*post, layk*) are adapted into Uzbek verb

[1] Кольцова Е.А., Карташкова Ф.И. Мультимодальный характер цифровой коммуникации: функционирование эмодзи в межличностном общении // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2022. – Т. 13. – № 3. – С. 769-783.

[2] Ильина И.А. Хэштег как лингвистический феномен // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. – 2016. – № 3 (55). – С. 41-44.

constructions (*post qilmoq* – "to make a post"), affixes attach to loanwords (*blogerlar* – "bloggers"), and communicative economy drives the use of concise sentences and imperatives (*Obuna bo'ling!* – "Subscribe!"). The author views this as evidence of the language's dynamic development and recommends corpus-based research into internet vocabulary.

Резюме. Статья анализирует влияние социальных сетей на узбекский язык на лексическом, морфологическом, синтаксическом, графическом и прагматическом уровнях. Заимствования из английского языка (*post, layk*) адаптируются к узбекской глагольной системе (*post qilmoq* – «размещать пост»), аффиксы присоединяются к заимствованным словам (*blogerlar* – «блогеры»), а коммуникативная экономия способствует активизации кратких предложений и императивов (*Obuna bo'ling!* – «Подпишитесь!»). Автор трактует это как проявление динамичного развития языка и рекомендует корпусное изучение интернет-лексики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OLQISH, DUO VA TILAK SO'ZLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbanbayeva Nilufar Ilxamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
roman-german filologiyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Madaniyatlararo muloqot ko'lamining kengayishi milliy etiket tizimlarini qiyosiy o'rganishni tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. Muloqotning eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bu ezgu niyat izhori hisoblanadi va u o'zbek nutq madaniyatida uchta o'zaro bog'langan nutqiy akt – olqish, duo va tilak (alqov) sifatida voqelanadi. Bu alqovlar shunchaki nutq etiketi shakllari emas: ularda xalqning diniy tafakkuri, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar modeli va dunyoni idrok etish tarzi ham jamlangan. Ushbu maqolada mazkur alqovlar atamalar sifatida emas, balki ichki tafovutlarga ega keng qamrovli yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqiladi va uning ingliz lingvomadaniyatidagi muqobillari bilan qiyoslanadi.

Maqolaning nazariy asosi J.L. Ostin[1] hamda J.R. Syorlning[2] nutqiy aktlar nazariyasi va A. Vejbitskayaning[3] tabiiy semantik metatil yondashuviga asoslanadi. Lingvokulturologik tahlil usullari esa V.A. Maslova[4], V.I. Karasik[5], V.N. Teliya[6] va V.V. Vorobyov[7] ishlariga, o'zbek materialini pragmatik talqin qilish esa Sh. Safarov[8] asos solgan yo'nalishga tayanadi.

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 166 p.
[2] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
[3] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.
[4] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
[5] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
[6] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
[7] Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
[8] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.